# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5SI4Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg‘ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 4-maxsus son (May, 2025). - 295 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI ........ 10-16

*Atamuratova Dilafruz*
TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI ........ 17-22

*Abdushukurova Iqbol*
TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI ........ 23-27

*Redjapov Doniyor*
JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA ........ 28-31

*Sultanov Samandar*
QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR ........ 32-35

*Matyakubov G'ayrat*
XORAZM VOHASIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR) ........ 36-39

*Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o'g'li*
MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA) ........ 40-45

*G'aniyev Mirjalol*
QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIY HAYOT ........ 46-51

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Abdullaev Altinbek*
KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 52-66

*Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira*
INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI ........ 67-71

*Rustamova Sayyora*
STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI ........ 72-77

*Буранова Лола, Арипова Азиза*
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ ........ 78-87

*Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich*
KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH AHAMIYATI ........ 88-94

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Saidov Xakim G'afurovich*
TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA ........ 95-98

*Kadirova Ziyoda*
ILMIY IJODNING IJTIMOIY, MADANIY VA TARIXIY O'LCHAMLARI ........ 99-104

*Muzaffarov Navruzxon Baxronovich*
SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA
OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI ........ 105-108

*Raxmatova Mexrinoz Majitovna*
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI
DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI ........ 109-113

*Karimova Lola Muzafarovna*
IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI ........ 114-119

*Jumayeva Shahlo Suyunovna*
JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK
MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 120-125

*Djurayev G'olib*
JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA
ERKINLIK MASALASI ........ 126-130

*Rajabov O'tkirjon*
KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA
"TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI ........ 131-134

*Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi*
GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI ........ 135-139

*Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza*
MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI ........ 140-144

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Abduganiyeva Djamila Rustamovna*
MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS ........ 145-151

*Murtazayeva Xadicha*
INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI ........ 152-155

*Несипбаева Саодатхан*
ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ
И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА" ........ 156-160

*Axmedjanova Farida, Toirova Shohida*
XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI ........ 161-165

*O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi*
TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL
VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI ........ 166-170

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Salaev Nodirbek*
PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI ........ 171-178

*Турсунов Ойбек Батирович*
МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА
ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ........ 179-184

*Xakimova Inobatxon*
XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI ........ 185-191

*Мардонов Амиржон Шерзод угли*
ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА .............. 192-202

*Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi*
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH .............................................................................................................. 203-207

*Xolmo'minov Shavkat Jumaevich*
EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ................................... 208-215

*Khudayberganova Nigina To'lqin qizi*
THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW .............................................................................................. 216-221

*Саидов Бобур Бахромжонович*
МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ... 222-229

*Normurodova Behro'za Xolmo'minovna*
RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI ........................................................ 230-236

*Qilichova Kamola Luqmonxon qizi*
DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI ............................................................................................................ 237-248

*Shagilov Pulatbek Koptleuovich*
BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI ............................................................ 249-256

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Imomov Sirojiddin Ilxomovich*
SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI ...................................................................................... 257-263

*Khayrova Madina Rasimovna*
NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI ................................................................................................ 264-269

*Mirkasimova Zilola Alisherovna*
MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI ............................................................ 270-273

*Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna*
AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI ........... 274-278

*Shakirova Dildora Abdumalikovna*
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH ...................................................... 279-285

*Djurayeva Nargis Narkulovna*
TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI ................................................................................................................ 286-290

*Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon*
MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY ........................................................................ 291-294

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 05 May 2025
**Accepted:** 15 May 2025
**Published:** 30 May 2025

*Article / Original Paper*

# IMPROVING CONVENTIONAL AND INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR COMBATING TRANSNATIONAL CRIMES IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY

**Jonuzoqova Yulduz Izzatulla kizi,**
Doctorol student of University of World Economy and Diplomacy

**Abstract.** Modern society is experiencing the rapid development of information technologies. This is fundamentally transforming not only communication but also the nature of criminal activity. Transnational crimes in the field of information technology have become a global issue, crossing national borders and allowing criminal networks to operate simultaneously across multiple jurisdictions. Given the complex nature of the digital space and the rapid pace of technological advancement, there is an urgent need to improve conventional and institutional mechanisms for combating transnational crimes in the field of information technology.

**Keywords:** Information technologies, institutions, documents, transnational crimes, international law, treaties, combating, cybercrimes.

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

**Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi,**
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Zamonaviy jamiyat axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishini boshdan kechirmoqda. Bu nafaqat kommunikatsiyani, balki jinoiy faoliyatning tabiatini ham tubdan oʻzgartiradi. Axborot texnologiyalar sohasida transmilliy jinoyatlar global muammo tugʻdirib, milliy chegaralardan oʻtib, jinoiy tarmoqlar bir vaqtning oʻzida bir nechta yurisdiksiyalarni qamrab oladi. Raqamli makonning oʻziga xos murakkab holati va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotganligidan kelib chiqib, axborot texnologiyalari sohasidagi transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashishda konvensional va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

**Kalit soʻzlar:** Axborot texnologiyalari, institutlar, hujjatlar, transmilliy jinoyatlar, xalqaro huquq, shartnomalar, kurashish, kiberjinoyatlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N32

2001-yilda qabul qilingan **“Kiberjinoyatchilik toʻgʻrisida”gi Budapesht konvensiyasi** axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashga qaratilgan birinchi xalqaro shartnoma boʻldi. Hujjat xakerlik, zararli dasturlarni tarqatish, kiberfiribgarlik va intellektual mulk huquqlarini buzish kabi kiberjinoyatlarni taʼqib qilishda mamlakatlar oʻrtasida huquqiy asos va muvofiqlashtirishni oʻrnatish uchun moʻljallangan. [1]

Budapesht konvensiyasining yuqorida qayd etib oʻtilgan muammolaridan kelib chiqib, mazkur hujjatni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni keltirib oʻtish mumkin:

Birinchidan, milliy suverenitet kafolatlarini mustahkamlash. Budapesht konvensiyasining eng bahsli normalaridan biri 32-moddaning “b” bandi boʻlib, u bir davlatning

huquqni muhofaza qilish organlariga boshqa davlat hududida joylashgan ma’lumotlarga, ushbu ma’lumotlarni nazorat qiluvchi shaxsning ixtiyoriy roziligi asosida, davlat hokimiyat organlarini xabardor qilmasdan kirish imkoniyatini beradi. Bu qoida tanqidlarga sabab boʻlmoqda. Chunki u milliy suverenitetni zaiflashtiradi va bunday harakatlarni amalga oshirayotgan davlatlar tomonidan suiiste’mol qilinishi mumkin. [2]

Mazkur muammoni hal etish uchun ma’lumotlar joylashgan davlat hokimiyatlarini majburiy ravishda xabardor qilish tartibini joriy etish taklif qilinmoqda. Hatto ma’lumotlarni nazorat qiluvchi shaxsning roziligi mavjud boʻlganda ham, davlatni majburiy xabardor qilish nazarda tutilgan boʻlishi kerak. Bu nizolarning oldini olish va huquqni muhofaza qilish organlarining harakatlari xalqaro huquq prinsiplariga muvofiq boʻlishini kafolatlaydi. [3]

Ikkinchidan, shaffoflik mexanizmlarini joriy etish. Xalqaro tergovlarga va davlatlar oʻrtasidagi hamkorlikka ishonchni oshirish uchun Konvensiya bilan tartibga solinadigan jarayonlarning shaffofligini ta’minlash zarur. Bu quyidagilarni oʻz ichiga olishi mumkin:

– Barcha harakatlarni hujjatlashtirish. Huquqni muhofaza qilish organlarining boshqa davlat hududidagi ma’lumotlarga kirish bilan bogʻliq har bir harakati hujjatlashtirilishi va har ikki davlatning vakolatli organlari tomonidan tekshirish uchun mavjud boʻlishi kerak.

– Mustaqil audit. Konvensiya davlatlarning uning qoidalarini qanday qoʻllayotganini tekshiradigan va inson huquqlari hamda xalqaro huquqiy normalarga rioya etilishini kafolatlaydigan mustaqil xalqaro audit mexanizmlarini nazarda tutishi mumkin.

Uchinchidan, yangi texnologiyalarni hisobga olgan holda modernizatsiya qilish. Budapesht konvensiyasi qabul qilinganidan beri texnologiyalar sezilarli rivojlandi. Bulutli hisoblash tizimlari, sun’iy intellekt, blokcheyn va kvantli hisoblashlar kibermakon muhitini tubdan oʻzgartirdi. Konvensiya ushbu oʻzgarishlarni aks ettirish uchun zamonaviylashtirilishi kerak.

Bulutli hisoblashlar. Bulutli texnologiyalari bilan bogʻliq eng jiddiy muammolardan biri bu — ma’lumotlarning yurisdiksiyasi. Ma’lumotlar turli davlatlarda joylashgan serverlarda saqlanishi mumkin. Bu ularning qaysi yurisdiksiyaga tegishliligini aniqlashni qiyinlashtiradi. Konvensiyada bunday ma’lumotlarga kirish uchun qoidalar aniq belgilab qoʻyilishi kerak. Bunda xalqaro kelishuvlarga rioya qilish zaruriyatini hisobga olish zarur. [4]

Sun’iy intellekt. Sun’iy intellektdan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar, masalan, avtomatlashtirilgan kiberhujumlar yoki ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish kabi jinoyatlar tartibga solishning yangi yondashuvlarini talab qiladi. Konvensiya sun’iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni oʻz ichiga olishi kerak.

Blokcheyn va kriptovalyutalar. Kiberjinoyatchilar blokcheyn texnologiyalari va kriptovalyutalarni koʻproq anonim tranzaksiyalar va pul yuvish maqsadida qoʻllay boshladilar. Budapesht konvensiyasi ushbu texnologiyalardan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash uchun qoidalarni nazarda tutishi kerak. [5]

Toʻrtinchidan, mustaqil xalqaro organni yaratish zarur. Konvensiya qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish va mamlakatlar oʻrtasidagi nizolarni hal qilish uchun mustaqil xalqaro organni yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu organ quyidagi asosiy vazifalarni bajarishi zarur:

– Konvensiya qoidalarining bajarilishini nazorat qilish. Davlatlarning milliy tergov va xalqaro hamkorlikda Konvensiyani qanday qoʻllashini baholash;

– Nizolarni hal qilish. Konvensiyani talqin qilish va qoʻllash bilan bogʻliq mamlakatlar oʻrtasidagi ziddiyatlarni, shuningdek, suverenitet va inson huquqlarining mumkin boʻlgan buzilishini koʻrib chiqish;

– Shikoyatlarni koʻrib chiqish. Jismoniy shaxslar va davlatlarga xalqaro kibertekshiruvlarda oʻz huquqlarini buzadi deb hisoblagan amaliyotlar ustidan shikoyat qilish imkonini berish.

Beshinchidan, davlatlar oʻrtasida ishonchni oshirish. koʻpgina davlatlar, jumladan, Rossiya va Xitoy Budapesht konvensiyasini ratifikatsiya qilishdan bosh tortgan. Chunki bu konvensiyaning bahsli qoidalari va suvereniteti yetarli darajada himoyalanmagani sabab boʻldi. Konvensiyaga ishonchni oshirish uchun davlatlar oʻz muammolarini muhokama qilishlari va oʻzgartirishlar taklif qilishlari mumkin boʻlgan muloqot platformalarini yaratish zarur. Bunga quyidagilar kiradi: [6]

– Doimiy maslahatlashuvlar. Axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlar va Konvensiyani qayta koʻrib chiqish bilan bogʻliq masalalarni muhokama qilish uchun xalqaro konferensiyalar va davra suhbatlari oʻtkazish;

– Qoʻshimcha kafolatlarni kiritish. Konvensiyaga xalqaro tergovlarda milliy suverenitet va inson huquqlarini himoya qiladigan qoidalarni kiritish koʻproq mamlakatlarni jalb qilishga yordam beradi.

Oltinchidan, xususiy kompaniyalar faoliyatini tartibga solish. bugungi raqamli ekotizim asosan internet provayderlari, bulutli xizmat provayderlari va ijtimoiy media platformalari kabi xususiy kompaniyalarga tayanadi. Ushbu kompaniyalar maʼlumotlarni saqlash va qayta ishlashda muhim rol oʻynaydi va ularni kiber tergovda muhim ishtirokchilarga aylantiradi. Biroq, bu kompaniyalarning faoliyati koʻpincha Budapesht konvensiyasi kabi xalqaro shartnomalarda yetarli darajada tartibga solinmagan. Xalqaro kiber tekshiruvlarda xususiy kompaniyalar bilan ishlash uchun aniq qoidalar boʻlishi kerak. Bu hamkorlikning majburiy talablarini, shuningdek, maʼlumotlari tergov predmeti boʻlishi mumkin boʻlgan foydalanuvchilarning shaxsiy hayoti va huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini oʻz ichiga olishi mumkin.

Yettinchidan, maʼlumotlarni himoya qilish va inson huquqlarini mustahkamlash. Axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda inson huquqlari va shaxsiy maʼlumotlar himoyasi hurmat qilinishi kerak. Sohada jinoyatlar ortib borayotgan bir paytda, davlatlar yanada samaraliroq tergov oʻtkazish uchun bu huquqlarni rad etishi mumkin emas. Buning oldini olish uchun Budapesht konvensiyasiga quyidagi qoidalarni kiritish zarur: [7]

– maʼlumotlarga kirishni cheklash. Huquqni muhofaza qilish organlari maʼlumotlarga faqat tergov uchun zarur boʻlganda va qonuniy tartib-qoidalarga qatʼiy rioya qilgan holda kirishlari kerak.

– maxfiylik himoyasini kafolatlash. Maʼlumotlarga kirish bilan bogʻliq har qanday harakatlar shaxsiy maʼlumotlar va foydalanuvchi maxfiyligini himoya qilish choralari bilan birga boʻlishi kerak.

Sakkizinchidan, muhim infratuzilmalarni himoya qilish. Bugungi kunda muhim infratuzilmalarga (masalan, energiya tizimlari, transport, telekommunikatsiyalar) kiberhujumlar keng tarqalgan boʻlib, xavfli holga aylanib bormoqda. Shundan kelib chiqib,

Budapesht konvensiyasiga muhim infratuzilmani himoya qilishga oid qat'iy qoidalar hamda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari uchun majburiy kiberxavfsizlik standartlarini kiritishi zarur.

Xulosa qilinsa, Budapesht konvensiyasi axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda muhim vosita boʻlib qolmoqda. Biroq u zamonaviy chaqiriqlarga moslashish uchun muhim yangilanishga muhtoj. Suverenitet kafolatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikning shaffof mexanizmlarini joriy etish, yangi texnologiyalarni takomillashtirish va mustaqil xalqaro organni yaratish kabi taklif etilayotgan oʻzgarishlarni amalga oshirish Konvensiya samaradorligini oshirishi va mamlakatlar oʻrtasida ishonchni mustahkamlashi mumkin. Bu milliy xavfsizlik va inson huquqlarini himoya qilish oʻrtasidagi muvozanatni saqlagan holda xalqaro miqyosda raqamli makonda jinoyatlarga qarshi yanada muvofiqlashtirilgan va adolatli kurashni ta'minlaydi.

Axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlar huquqni muhofaza qilish organlari, sud tizimlari, xalqaro tashkilotlar va xususiy kompaniyalar kabi turli institutlarning muvofiqlashtirilgan harakatlarini talab qiladi. Biroq, mavjud institutsional mexanizmlar jinoyatlarga qarshi samarali kurashishni qiyinlashtiradigan qator muammolarga duch kelmoqda. [8]

Asosiy muammolardan biri bu raqamli makonda jinoyatchilikka qarshi kurashda ishtirok etuvchi turli institutlarning tarqoqligidir. Milliy huquq-tartibot idoralari va sud tizimlari koʻpincha transmilliy kiberjinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli resurslar yoki tajribaga ega emas. [9] Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi muammolarni hal qilishga qodir ixtisoslashgan kiber birliklar yetishmaydi. Bu esa raqamli makonda jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro tizimida boʻshliqni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, turli mamlakatlar va tashkilotlar oʻrtasida muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarning yoʻqligi sababli xalqaro hamkorlik koʻpincha qiyin kechadi. [10]

Xulosa qilib qayd etish joizki, axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlar zamonaviy jamiyat uchun eng jiddiy tahdidlardan biridir. Ushbu tahdidga qarshi samarali kurashish uchun milliy va xalqaro darajadagi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Bunda ixtisoslashgan idoralar tashkil etish, yagona strategiya ishlab chiqish, qonunchilikni yangilash, mutaxassislar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kiradi. Faqatgina kompleks yondashuv raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida kibertahdidlarga qarshi kurashish va fuqarolar va davlatlar xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Council of Europe. (2001). Convention on Cybercrime. https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list/-/conventions/rms/0900001680081561
2. Gercke M. Ten Years Convention on Cybercrime // Computer Law Review International. 2011. Vol.15. Issue.
3. Council of Europe. The Functioning of 24/7 Contact Points for Cybercrime. Discussion Paper. URL: http://www.coe.int/t/dghl/cooperation/economiccrime/cybercrime/documents/567_24_7report4public_april09a.pdf (дата обращения: 25.09.2024)
4. Development Gateway's Special Report, Information Society – Next Steps? 2005. URL: http://topics.developmentgateway.org/special/informationsociety (дата обращения: 25.09.2024)
5. Gercke M. Ten Years Convention on Cybercrime // Computer Law Review International. 2011. Vol. 15. Issue 5.

6. Report of the Latin American and Caribbean Regional Preparatory Meeting for the Twelfth United Nations Congress. P.10. URL: http://www.unodc.org/documents/treaties/Congress12RPM/2009-RPMLatinAmerica/V0984371_E.pdf (дата обращения: 25.09.2024
7. Report of the Western Asian Regional Preparatory Meeting for the Twelfth United Nations Congress on Crime Prevention and Criminal Justice. P.10. URL: http://www.unodc.org/documents/treaties/Congress12RPM/2009-RPM-WesternAsia/V0984377e.pdf (дата обращения: 25.09.2024
8. Gercke M. Ten Years Convention on Cybercrime // Computer Law Review International. 2011. Vol.15. Issue 5
9. T-CY (2008) 01, Compilation of responses to questionnaire for the Parties concerning the practical implementation of the Convention on Cybercrime. Strasbourg, March 2008, P.28. URL: http://www.coe.int/t/dghl/standardsetting/t-cy/T-CY%20(2008)%2001%20E.PDF (дата обращения: 25.09.2024)
10. Digital Transformation of AML/CFT // https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Digitaltransformation/Digital-transformation.html

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).